



**NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARI RIVOJLANTIRISHDA
QO'LLANILADIGAN METODIK USULLAR**

Musayeva Nargiza Sayfullayevna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası

professor v.b.

Tagayeva Shaxlo Kamildjanovna

Kimyo xalqaro universiteti

Logopediya yo 'nalishi MSPD-1U

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq kamchiligiga ega bo 'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda, nutqiy ko 'nikma va malakalarni shakllantirishni qo 'llaniladigan metodik usullar yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье освещены методические приёмы, применяемые при развитии познавательных способностей и формировании речевых умений и навыков у дошкольников с нарушениями речи.*

Annotation: *This article highlights methodological approaches used to develop cognitive abilities and to form speech skills and competencies in preschool children with speech impairments.*

Kalit so'zlar:*nutq, bilish jarayonlari, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur.*

Ключевые слова: *речь, познавательные процессы, восприятие, память, внимание, воображение, мышление.*

Keywords: *speech, cognitive processes, perception, memory, attention, imagination, thinking.*



Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida bilish jarayonlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda bilish faoliyati — idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur jarayonlarining rivojlanishi maxsus yondashuvni talab etadi. Bunday bolalar bilan ishlashda metodik usullarni to'g'ri tanlash va tizimli qo'llash ularning psixik hamda nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [1,3,4].

Korreksion ta'lim tizimida bolalarning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish, muloqotga kirishish qobiliyatlarini shakllantirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bilish jarayonlari yetarlicha shakllanmagan bolalarda nutqiy rivojlanish jarayoni ham sust kechadi. Shu sababli, logopedik ishlar va maxsus ta'lim metodlari yordamida ularning bilish jarayonlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. [2,5].

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda defektolog, tarbiyachi hamda logopedlar quyidagi metodik tavsiyalarga amal qilishlari lozim: defektolog, tarbiyachi hamda logopedlar psixologik-pedagogik tashxis natijalarini birgalikda muhokama qilib, har bir bolaning kundalik ta'lim-tarbiyasi samarali kechishi uchun ijobiy korreksion ish uslubini tanlashlari lozim;

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha korreksion ishlarga sharoitlar yaratish: kommunikativ muloqotni rivojlantiruvchi mashqlar va o'yin texnologiyalaridan dars, mashg'ulot va dam olish paytida foydalanish;

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolani bajargan ishlarini boshqa bolalar bilan solishtirmasdan balki uni o'zining avvalgi ishlari bilan solishtirib erishayotgan yutuqlarini aytib rag'batlantirib, bolaga o'z kuchiga ishonch hissini rivojlantirish;

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar atrofida gilar mehrini his etib turishi lozim, bola bilan doimo munosabatga kirishib uni qo'llab-quvvatlash kerak;

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z kuchlariga ishonch hislarini rivojlantirish uchun darsda, o'yin jarayonida va mashg'ulotlar davomida barcha bolalarning faol ishtirokini ta'minlash zarur; [4,5].



Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yaxshi suhbatdosh, yaxshi tinglovchi bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Nutqni rivojlantirish metodi — bu pedagog va bolalar faoliyatining, nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi usuli hisoblanadi. [4,7].

Metodlar va usullarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin (foydalanilayotgan vositalarga, bolalarning nutqiy va bilish faoliyatining xarakteriga va boshqalar).

Metodikada uchta usullar guruhi ajratiladi: ko'rgazmali, og'zaki va amaliy usullar. Ko'rgazmali usullar odatda so'z bilan birga qo'llanadi, og'zaki usullarda esa ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi. Amaliy usullar ham so'z, ham ko'rgazmali material bilan birgalikda olib boriladi. Qaysi metodni ko'rgazmali, qaysi birini og'zaki yoki amaliy deb tasniflash, asosan, u yoki bu harakatning ustunligiga bog'liq. [1,2].

Bolalar bog'chasida ko'rgazmali usullar ko'proq qo'llaniladi. Bunga ko'ra bevosita va bilvosita usullar ishlatiladi. Bevosita usullarga kuzatish metodi va uning turlari kiradi: ekskursiyalar, xonalarni ko'zdan kechirish, tabiiy predmetlarni kuzatish. Bu usullar nutq boyligini ko'paytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ikki signal tizimi (ya'ni, tasavvur va so'z) o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Bilvosita usullar tasviriy ko'rgazmalardan foydalanishga asoslangan. Bularga o'yinchoqlarni, rasmlarni, fotosuratlarini ko'rib chiqish, rasmlar va o'yinchoqlarni tasvirlash, ular asosida hikoya qilish kiradi. Ushbu usullar bilimlarni, lug'at boyligini ko'paytirish, so'zning umumlashtiruvchi funksiyasini rivojlantirish, nutqqa o'rgatish uchun qo'llaniladi. Bilvosita usullar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri tanishish imkoni bo'lmagan obyekt va hodisalar bilan tanishtirish uchun ham foydalanilishi mumkin. [1,7].

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, mazkur metodik yondashuvlar tizimli qo'llanganda, bolalarda nafaqat nutqiy, balki umumiy bilish faoliyati ham rivojlanadi. Natijada, bolalar o'z fikrini mustaqil ifoda etish, atrof-muhitni to'g'ri idrok etish va ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Выготский, Л. С. (2017). Лекции по психологии. Мышление и речь.
2. Калягин В.А. Логопсихология / В.А. Калягин, Т.С. Овчинникова. – М.: Академия, 2008. – 320 с.
3. Сарбалаева, С. М. (2013). Развитие воображения у детей дошкольного возраста. Наука и современность, (25-1), 137-142.
4. Худик Владимир Александрович ЛЕВ СЕМЁНОВИЧ ВЫГОТСКИЙ: ВЧЕРА, СЕГОДНЯ, ЗАВТРА // КПО. 2015. №2 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lev-semyonovich-vygotskiy-vchera-segodnya-zavtra> (дата обращения: 19.03.2025).
5. 2017yil 9 sentyabr, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261 son
6. L.R. Mo’minova, SH.M. Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M. Dlalolova, N.Z. Abidova Maxsus psixologiya. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013
7. M. F. Qurbonova, & T. N. Bekpolatova (2021). BOLALAR OG`ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O`YIN VA O`YINCHOQLARNING O`RNI. Scientific progress, 1 (5), 93-97.